

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

BOLTABOYEV IQBOLJON TURSUNALIYEVICH

**TEMURIYLAR DAVRI MUTAFAKKIRLARI TASAVVUFIY-FALSAFIY
QARASHLARIDA KOMIL INSONGA OID G‘OYALARNING NAMOYON
BO‘LISHI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Boltaboyev Iqboljon Tursunaliyevich

Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida
komil insonga oid g‘oyalarning namoyon bo‘lishi.....3

Болтабоев Икболжон Турсуналиевич

Проявление идей о совершенном человеке в тасаввуф-философских взглядах
мыслителей эпохи Тимуридов.....23

Boltaboev Iqboljon Tursunaliyevich

Manifestation of ideas on the perfect man in tasawwuf-philosophical views of
thinkers of the Timurid era45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

BOLTABOYEV IQBOLJON TURSUNALIYEVICH

**TEMURIYLAR DAVRI MUTAFAKKIRLARI TASAVVUFIY-FALSAFIY
QARASHLARIDA KOMIL INSONGA OID G‘OYALARNING NAMOYON
BO‘LISHI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fal835 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Siddiqov Ilyosjon Baxromovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Pardayeva Marhabo Davlatovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Samatov Xurshid Ulmasjonovich
falsafa fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “26” aprel soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (640 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “12” aprel kuni tarqatildi.

(2025 yil “12” aprel dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo'layotgan jarayonlar bevosita fan, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat va ta'lim integratsiyasini yanada chuqurlashtirishni, ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy va ma'rifiy yo'nalishlardagi islohotlarni muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. XXI asr jahon hamjamiyatida takomillashib borayotgan taraqqiyot omillari yoshlarning chuqur ijtimoiylashuvini va ma'naviy-axloqiy bilimlar bilan boyitadigan innovatsion modelini yaratishda o'rta asr mutafakkir va mutasavvurlarining falsafiy-irfoniy qarashlaridagi insonparvarlik tamoyillarini insoniy yuksaklikka undagan ilmiy, ma'rifiy, axloqiy, diniy, ma'naviy g'oyalardan unumli foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun Amir Temur va temuriylar davridagi tasavvuf ta'limoti va falsafasining jamiyat mafkurasiga aylanish xususiyatlarini, shu asosda komil inson to'g'risidagi g'oyalarning yanada takomillashganligining falsafiy ahamiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida tasavvuf allomalarining qoldirgan boy ma'naviy merosi, uning jahon fani va sivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissasi, komil inson va uning ijtimoiy mohiyatini yoritishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Temuriylar davri mutafakkirlarining asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy qarashlari hamda ularning ma'naviy merosidagi komil inson va uning ijtimoiy mohiyatini, komil insonga xos bo'lgan bag'rikenglik, hurfikrlilik, adolatlilik, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi gumanistik g'oyalar bugungi global jamiyatda ham sog'lom e'tiqodli insonni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan Naqshbandiya tariqati va uning namoyondalarining komil insonga oid g'oyalarning ontologik, ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy, aksiologik, altruistik mohiyati va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga – Uchinchi Renessans davriga qadam qo'yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda yosh avlodimiz intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish, shu asosda Yangi O'zbekistonning munosib bunyodkorlari etib tarbiyalash borasida islohotlar olib borilmoqda. “Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqiga yozdirgan “Adolat - davlatning asosi va hukmdor - shioridir”, Alisher Navoiy bobomizning esa “Zulm qilma, insofli bo'l, xalq uchun adl qasri, ya'ni adolat qo'rg'onini bunyod et , deb aytgan hikmatli so'zlarida aks etgan ulug'vor g'oyalar insonning qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylanmoqda”¹. Shu bois komil insonning tarbiyasiga aloqador tasavvufiy qarashlar, inson kamolotiga oid rashhalar, futuvvatga doir g'oyalarning Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etish, yangi ma'naviy makon yaratish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga oid mezon va mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. - Тошкент: “O'zbekiston”, 2021. - Б.106.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-noyabrdagi 723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tasavvufiy dunyoqarashning ma‘naviy-axloqiy jihatlarini o‘rgangan xorijlik olimlar qatoriga A.Arberri, V.Jons, D.Malkolm, J.Grexm, Mir Validdin, Vilokks Linn, K.Ernst, I.Goldsiyer, K.Snuk-Xyurgronye, Lui Massinyon, J.G.Tassi, Alfred fon Kremer, Frid Avgust Toluk, Y.Xammer va F.Ryukert, Yurgen Paul, Annemari Shimmel kabi olimlarni kiritish mumkin².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari Ye.Bertels, A.Bagautdinov, I.Braginskiy, A.Krimskiy, V.Jukovski, I.Petrushevskiy, A.D.Knish, E.Sovitova, A.Xismatulin, I.Nasirov, A.Yanguzin, K.Kodirov, D.Fayzaliyev,

² Шиммель А. Мир исламского мистицизма. / Пер. с англ. Н.И.Пригариной, А.С.Раппопорта. - М.: Алейта, Энигма, 2000; Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. - Москва – Санкт -Петербург. «Диля», 2004. - 184 с.; Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. О.Ф. Акимушкина. – М-Л. 1989; Netton I. The Breath of Felicity: Adab, Ahwal, Maqamat and Abu Najib al-Suhrawardi, Classical Persian Sufism from its Origin to Rumi. London, N.Y., 1993; Brockelman C. Geschichte der Arabischen Litteratur. Vol. 3, Leiden E.J. Brill, 1943; Rizvi A. A History of Sufism in India. New Dehli.Vol.2, 1968. P. 397-398; Algar H. the Path of God's Bondsmen From Origin to Return: A Sufi Compendium by Najm ad-Din Razi. Delmar, NY, 1982; Arberry A. Sufism: An account of the mystics of Islam.5th ed. London, 1969; The Mystics of Islam. Cambridge, 1974; The Doctrine of Sufis. Cambridge reprinted, 1991; Ritter H. Das Meer der Seele. Leiden, 1955.P. 473-476; Addas C. The Quest for Red Sulphur. Cambridge, 1993.P. 239-241; Baldick. J. Mystical Islam: An Introduction to Sufism. London, 1989; Palmer E.H. Oriental Mysticism. London, 1969; Çatak A. “Shabeddin Suhreverdi hayati eserleri ve tasavvuf anlayisi”. - Yenimahalle/Ankara: “Aşar Matbaası”, 2012;

D.Taxeri, K.Olimov, K.Abduraximov izlanishlarida Markaziy Osiyodagi tasavvufiy-falsafiy ta'limotlarning diniy va dunyoviy munosabatlari ochib berilgan³.

O'zbekistonda tasavvufshunos olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qilish jarayonida tadqiqotlarni shartli ikki guruhga ajratish mumkin. *Birinchi guruh*, istiqlolgacha va istiqlool davrida tasavvuf ta'limotini o'rganishga munosib hissa qo'shgan ustoz olimlar jumladan, I.Mo'minov, M.Hazratqulov, X.Aliqulov, O.Bo'riyev, H.Homidiy, N.Komilov, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, G.Navro'zova, O.Usmon, H.Boltaboyev, R.Shodiyev va boshqalar⁴. *Ikkinchi guruh*, tasavvufshunos olimlar ilmiy maydonga chiqdilarki, ularning ilmiy salohiyati ham tasavvuf ilmini o'rganishda o'z ahamiyatiga ega. Jumladan, J.Xolmo'minov, B.Namozov, E.Zoirov, X.Rahmatova, M.Pardayeva, S.Abduvohidov, D.Sayfullayeva, X.Samatov, V.Cho'liyeva shular jumlasidandir⁵.

Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarni o'rganish bo'yicha falsafa fani tarixida bir qancha ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan bo'lishiga qaramay, mutafakkirlarning tasavvufiy merosining ijtimoiy-falsafiy mohiyati hozirgi zamon nuqtai nazaridan maxsus o'rganilmaganligi sababli, mazkur tadqiqotda ushbu yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda tasavvuf ta'limotining rivojida temuriylar davri mutafakkirlarining ilmiy-ma'naviy merosini ahamiyati, uning komil insonni tarbiyalashdagi ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy jihatlarni tadqiq etish dolzarb ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "O'zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalarining ahamiyati" (2022-2026 y.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

³ Хисматулин А.А. Суфийская ритуальная практика. (На примере братства Накшбандийа). - СПб.: Центр «Петербургское Востоковедение», 1996; Насыров И.Р. Основания исламского мистицизма (генезис и эволюция). - Москва: Языки славянских культур, 2009; Янгузин А.Р. Духовный мир суфиев. -Уфа: «Гилем», 2007; Олимов К. Мировоззрение - Душанбе: Санои, 1973. Хорасанский суфизм. - Душанбе, 1994.

⁴ Муминов И.М. Выдающиеся мыслители Средней Азии. - Москва: Знание, 1966. - 47 с.; Ҳазратқуллов М. Тасаввуф.-Душанбе: Моариф. 1988.; Алиқуллов Х. Этические воззрения мыслителей Средней Азии и Хорасана. -Тошкент: Фан, 1992. - 97 б; Бўриев О. Баҳоуддин Накшбанд уғитлири.// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. №10. 1993.; Шодиев Р.Т. Суфизм в духовной жизни народов средней Азии (IX-XII вв.): Автореф. дисс... на соиск. уч степ. доктора филос. наук. - Т.: 1993.; Усмон. О. Бектошия: мулоқот.-1997. №2. Яна қаранг: Хожа Абдуҳолиқ Ғиждувоний. -1993 №1.; Ҳамиджон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. Т.: Шарқ, 2004.; Комилов Н. Тасаввуф. Мовароуннаҳр. -Т.: Мовароуннаҳр-Ўзбекистон, 2009.; Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. - Т.: Мовароуннаҳр, 2004.; Г.Наврўзова. Баҳоуддин қаламига мансуб рисола. Баҳоуддин Накшбанд. Авроди баҳоия. - Бухоро. 2000.; Болтабоев Х. Ислом тасаввуфи манбалар. Тасаввуф назарияси ва тарихи. -Тошкент. "Ўқитувчи" нашриёти, 2005.

⁵ Холмуминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. Тошкент. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" 2008.; Намозов Б. Муҳаммад Порсо тасаввуфий таълимотининг фалсафий асослари.-фал.фан.док. дисс. 2020.; Зоиров Э. Яъқуби Чархийнинг фалсафий ва ижтимоий-сиёсий қарашлари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Бухоро. 2023; Раҳматова Х. Хожа Аҳрор Валий маънавий меросида муроса фалсафасига доир ғоялар таҳлили. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Бухоро. 2023; Пардаева М. Алишер Навоий маънавий меросида Накшбандия таълимоти мазмун-моҳиятига оид ғоялар. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Бухоро. 2023; Раҳмонов С. Иккинчи Ренессанс даврининг маънавий-руий асоси. Монография.-Самарқанд., СамДЧТИ нашри, 2021.-Б.77; Сайфуллаева Д. Абу Ҳомид Ғаззолийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. -фал.фан.ном. дисс.Самарқанд. 2020. ва х.

Tadqiqotning maqsadi temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat yuksalishini o'rganishning metodologik xususiyatlari tadqiq etish;

Temuriylar davrida tasavvuf ta'limotining rivojlanishi va uning ma'naviy-madaniy yuksalishga ta'sirini aniqlash;

Naqshbandiya tariqati va unda ilgari komil inson talqinini, o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va temuriylar davri mutafakkirlari qarashlariga aloqador jihatlari asoslash;

Temuriylar davri mutasavviflarining tasavvufiy qarashlarida inson ma'naviy-ruhiy kamoloti masalasini falsafiy qirralarini tahlil qilish;

Husayn Voiz Koshifiyning futuvvat haqidagi g'oyalarning komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini ochib berish;

Abdurahmon Jomiyning rashhalarida komil insonga oid g'oyalarning falsafiy tahlilni amalga oshirish;

Alisher Navoiyning komil inson haqidagi konsepsiyasi, uning tasavvuf falsafasi bilan aloqadorligini asoslab berish;

Yangi O'zbekistonda temuriylar davri mutafakkirlarining komil insonga oid qarashlarini hayotga tadqiq etishning muammolarini aniqlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini temuriylar davri mutafakkirlarining ma'naviy, ilmiy, tasavvufiy merosi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti temuriylar davri mutafakkirlarining adabiy va tasavvufiy merosining komil insonni tarbiyalashdagi axloqiy mohiyatini va ularni takomillashtirish xususiyatlarini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XIV-XV asr ilm va ma'rifat, adabiyot va san'at va tasavvufning rivojlanishida amir temur davlati mafkurasining asosini bahouddin naqshband tariqati g'oyalari tashkil etganligi va madaniy, ma'naviy taraqqiyotga rahnamolik qilganligi aniqlanib, komil inson to'g'risidagi g'oyalarning yanada takomillashishida saxovat, tavoze, qanoat, afv va marhamat, qurb kabi mezonlar asoslab berilgan;

Naqshbandiya tariqati namoyondalari (Bahouddin Naqshband, Alouddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ismat Buxoriy, Xoja Ahror Valiy)ning komil insonga oid poklik, ijtimoiy faoliyat, axloqiy kamolot va halol mehnat kabi g'oyalari hamda ruhiy poklik va ilmiy kamolot, shariat, tariqat va haqiqatni uyg'unlashtirish (ontologik), halollik, fidoyilik, adolat va muruvvat (ma'naviy), ilm olish, qalb pokligi va ilmiy tafakkurning ustunligi (ma'rifiy), axloqiy poklik va halollik (aksiologik), iqtisodiy va siyosiy barqarorlik kabi tamoyillarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri ochib berilgan;

komil insonning tarbiyasiga aloqador tasavvufiy qarashlarning Temuriylar davri allomalari Abdurahmon Jomiyning inson kamolotiga oid rashhali, Husayn

Voiz Koshifiyning futuvvatga doir g'oyalari, Mahdumi A'zamning "vujud dehqoni" tushunchasining antropologik (tana va ruh, genetik) va ontologik (inson borlig'i, makon, zamon, rivojlanish) xususiyatlari aniqlashtirilgan;

Temuriylar davri mutafakkirlarining komil insonni tarbiyalash haqidagi tasavvufiy-falsafiy qarashlarining Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etish, yangi ma'naviy makon yaratish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga dialektik aloqador ekanligi, ularni ijtimoiy institutlar faoliyatiga qo'llashning fenomenologik hamda germenevtik jihatlari ochib berilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Amir Temur fuqarolarini sihat-salomatligiga e'tibor bilan qarab, ularning barkamol, sog'lom, baquvvat, ishbilarmon, jang qilishda mohir bo'lishiga alohida e'tibor berganligi, avlodlar nasl-nasabining buzilishiga ta'sir etuvchi qusurlardan saqlanishga chorlagani giyohvandlik va ichkilikbozlik kabi illatlarning zararli oqibatlarini bartaraf etishda metodologik asos bo'lishi isbotlangan;

Temuriylar davri mutafakkirlarning komil inson to'g'risidagi qarashlari kayhoniy vujud (Ibn al-Arabiy, Shayx Omuliy, Abdulkarim Giyloniy) hamda kayhoniy va voqeiy (hayotiy) vujud (Aziziddin Nasafiy) yo'nalishida talqin etilganligi asoslangan;

tasavvufning tarixiy-falsafiy mohiyati umuminsoniy, etnik, axloqiy, qadriyatlarni saqlab qolish va komil insonni tarbiyalashda namoyon bo'lishi hamda yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishda, ezgu g'oyalarini targ'ib etishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Movarounnahr tasavvufi tarixi, uning Temuriylar davridagi rivojini tadqiq qilish, tasavvuf manbashunosligiga oid asarlarni yaxlit va atroflicha tahlil etishda metodologik yondashuvlar va bu boradagi nazariy xulosalarni mukammallashtirishda, o'rta asr so'fiylik ta'limotlari genezisi, axloqiy-tarbiyaviy mohiyatini o'rganishga oid tadqiqotlarda, jahon hamjamiyatida islomning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, zamonaviy jamiyat yoshlarda komillik fazilatlarini, intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishni shakllantirishda, temuriylar davri mutafakkirlarining komil inson haqidagi qarashlarining falsafiy mohiyatini ochib berish va komil inson tushunchasining taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilishda, shuningdek, "Falsafa tarixi", "Tasavvuf falsafasi", "Tasavvuf tarixi", "Tasavvuf germenevtikasi", "Dinshunoslik" fanlari mazmunining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish va boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalardan O'zbekistonda ilm-fan, tasavvuf ta'limoti va ma'naviy meros tarixini o'rganish,

ta'lim muassasalarida hamda oliy o'quv yurtlarida tasavvuf tarixiga oid maxsus kurslar tashkil etish, O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan davlat dasturlarini bajarishda, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlarining tarbiyaviy faoliyatida, fuqarolik jamiyati institutlarining inson manfaatlarini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni yaratish, tasavvuf tarixi bilan bog'liq ilmiy asoslangan targ'ibot materiallari, tasavvufga oid kitoblar, fuqarolarning diniy, ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur o'rganish, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini targ'ib etish, yosh avlodni buyuk ma'naviy merosga hurmat, mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini oshirishda hamda komil inson konsepsiyasi asosida zamonaviy shaxs tarbiyasi uchun yo'nalishlar ishlab chiqish, komil inson g'oyalari ijtimoiy rivojlanish va yetakchilik modeliga tatbiq etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning namoyon bo'lish xususiyatlarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

XIV-XV asr ilm va ma'rifat, adabiyot va san'at va tasavvufning rivojlanishida amir temur davlati mafkurasining asosini bahouddin naqshband tariqati g'oyalari tashkil etganligi va madaniy, ma'naviy taraqqiyotga rahnamolik qilganligi aniqlanib, komil inson to'g'risidagi g'oyalarning yanada takomillashishida saxovat, tavoze, qanoat, afv va marhamat, qurb kabi mezonlariga oid ilmiy yangilik va xulosalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"da 2022-2024 yillarda efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari" teleko'rsatuvlarining turkum sonlari ssenariylarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024 yil 17 sentabrdagi 04-36-1033 son ma'lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning Vatanimiz tarixi, xususan temuriylar davri tarixi va mutafakkirlari, ularning boy ilmiy merosi, gumanistik g'oyalari haqidagi bilim va ko'nikmalarining yanada oshishiga xizmat qilgan;

Naqshbandiya tariqati namoyondalari (Bahouddin Naqshband, Alouddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ismat Buxoriy, Xoja Ahror Valiy)ning komil insonga oid poklik, ijtimoiy faoliyat, axloqiy kamolot va halol mehnat kabi g'oyalari hamda ruhiy poklik va ilmiy kamolot, shariat, tariqat va haqiqatni uyg'unlashtirish (ontologik), halollik, fidoyilik, adolat va muruvvat (ma'naviy), ilm olish, qalb pokligi va ilmiy tafakkurning ustunligi (ma'rifiy), axloqiy poklik va halollik (aksiologik), iqtisodiy va siyosiy barqarorlik kabi tamoyillarning yoshlar tarbiyasiga ta'siriga doir tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-raqamli "O'zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transdisiplinar platformasini yaratish" (2021-2022 yy) amaliy loyihada belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024 yil 16 sentabrdagi 04/11-7121 son ma'lumotnomasi). Natijada, temuriylar davri mutafakkirlari asarlaridagi umuminsoniy, axloqiy qadriyatlarining bugungi yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishdagi o'rni asoslab berishga xizmat qilgan;

komil insonning tarbiyasiga aloqador tasavvufiy qarashlarning Temuriylar davri allomalari Abdurahmon Jomiyning inson kamolotiga oid rashhalari, Husayn Voiz Koshifiyning futuvvatga doir g'oyalari, Mahdumi A'zamning "vujud dehqoni" tushunchasining antropologik (tana va ruh, genetik) va ontologik (inson borlig'i, makon, zamon, rivojlanish) xususiyatlariga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika va ma'naviyat markazining 2022-2023 yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo'nalishida belgilangan "Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti", 41-bandi "Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish"ga oid targ'ibot ishlarini tashkil etishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024 yil 17 senyabrdagi 973-son ma'lumotnomasi). Natijada, temuriylar davri mutafakkirlarining komil insonni shakllantirishga doir g'oyalaridan bugungi kunda ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot faoliyatida foydalanish zaruratini asoslashga xizmat qilgan.

Temuriylar davri mutafakkirlarining komil insonni tarbiyalash haqidagi tasavvufiy-falsafiy qarashlarining Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etish, yangi ma'naviy makon yaratish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga dialektik aloqador ekanligi, ularni ijtimoiy institutlar faoliyatiga qo'llashning fenomenologik hamda germenevtik jihatlariga doir ilmiy xulosalar va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-106 son "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining g'arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi" (2017-2020 yy) fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida nashr etilgan ishlarda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 16-sentabrdagi 04/11-7122-son ma'lumotnomasi). Natijada, temuriylar davri mutafakkirlarida komil insonga oid g'oyalar shakllanishining tarixiy-madaniy asoslarini ochib berish va ularga doir tadqiqotlar sharhini amalga oshirishga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 152 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi,

muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi **“Amir Temur va temuriylar davrida tasavvuf ta'limoti rivojlanishini tadqiq qilishning nazariy-metodologik muammolari”** deb nomlangan bobida Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat yuksalishining metodologik xususiyatlari hamda temuriylar davrida tasavvuf ta'limotining rivojlanishi va uning ma'naviy-madaniy yuksalishga ta'siri tahlil qilingan.

Madaniyat taraqqiyoti jarayoni har qanday jamiyatda ham davr ijtimoiy-iqtisodiy voqe'ligi bilan bevosita bog'liqlikda va o'sha voqelikka hamohang holda kechadi. Madaniyat taraqqiyoti yuqoridagi qonuniyat doirasidan yuqorilab, o'z davriga nisbatan yuksakroq darajalarga ko'tarilishi ko'pincha o'sha jamiyatning ilg'or g'oyalari, madaniyatga jamiyat va davlat tarafidan ko'rsatiladigan ulkan e'tibor ta'sirida bo'lishi mumkin. Amir Temur tomonidan Movarounnahrda yagona va qudratli davlat barpo etilishi hamda bu yerda tinchlik, osoyishtalikning ta'minlanishi ham madaniyat ravnaqi uchun zarur omillardan edi. Lekin, bulardan tashqari, Amir Temur davlati madaniyatining shiddatli va keng doirada yuksalishining yana ikki muhim omili yuzaga kelgan ediki, bularsiz madaniyat bu qadar yuksak cho'qqilarga ko'tarila olmas, u xalq, turmushi hamda ongiga dadil kirib bora olmas edi. Ularning *birinchisi* Amir Temur davri mafkurasining asosini Bahouddin Naqshband tariqati g'oyalari tashkil etgan bo'lsa, *ikkinchisi*, madaniyat va ma'naviyat taraqqiyotiga bevosita Sohibqironning o'zi rahnamolik qilganligidir.

Dissertatsiyada Amir Temur olimlar va fozillarni juda qadrlash bilan birga, o'zi ham qator fanlardan xabardor bo'lganligi asoslab berilgan. Ibn Arabshoh Amir Temurning olim va ulamolarga bo'lgan yuksak e'tibori va ehtiromiga tan berib, quyidagi ma'lumotni yozib qoldirgan edi: “Amir Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayidu shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolalar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'rardi”⁶.

Dissertantning fikriga ko'ra, Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida ham Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, madaniyatga e'tibor berish, yuqori darajada homiylik qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan va aksariyat shaharlarda oliy ta'lim dargohlari bo'lib hisoblangan madrasalar barpo etilgan, o'z davrining yetuk olimu ulamolari tolibi ilmlarga dars berishga jalb etilgan. Markazlashgan davlat va yirik saltanat hamda ma'rifatli jamiyat barpo etishning asosiy omili sifatida Amir Temur islomiy shariatga tayanib ish ko'rish va har qanday taraqqiyotning asosi sifatida ilm-fanni rivojini ko'rgan. Shu sababdan ham Amir Temur birinchi navbatda ilm-fan rivojini to'g'ri yo'lga qo'yish, bilimli, ma'rifatli shaxslarning jamiyatda tutgan nufuzini ko'targan. Amir Temur va

⁶ Одилов А.А. Amir Temur – yuksak ma'naviy sifatlar sohibi. // “Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. - Toshkent, 2023. – B. 12

Temuriylar hukmronligi Movarounnahr va Xuroson, umuman O'rta Sharq xalqlari tarixida muhim tarixiy davr bo'lib hisoblanib, aynan shu davrda turli xalqlar, etnoslar tarixida ham iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan o'zaro yaqinlashish davri bo'ldi⁷.

Tadqiqotda Amir Temur yashagan davrda jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida diniy tafakkur muhim ahamiyat kasb etganligi ta'kidlangan. Amir Temur islom dini taqvodorligiga mudom mansubligini ko'rsatib, davlat manfaatlaridan kelib chiqib, har doim musulmon ruhoniylarining barcha namoyondalari bilan o'ta do'stona munosabatlar o'rnatgan⁸. Buyuk sarkardaning tasavvuf ahliga e'tiqodi uning nafaqat "Temur tuzuklar"ida balki boshqa bir qator asarlarda ham namoyon bo'lgan. O'z saltanati siyosatini tasavvuf asosiga qurgan Temur adolat bayrog'ini baland ko'tarib, xalqni faqat qonun-qoidaga emas, balki insoniy tartib-intizomga bo'ysunishga chaqirgan. Chunki Temur insoniy tartib-intizomga ilohiy tus berib, uni muqaddas deb bilgan va shuning uchun ham yomonlikni maqsad qilgan kishilarni jilovlovchi va yaxshilik yo'lida jafo chekuvchilarni quvvatlovchi har qanday podsho va hokimga bo'ysunish kerak, deb hisoblagan. Temur, tasavvufning rivojlanishini yangicha xususiyat bilan boyitgan va uning dunyoviylik ahamiyatini yanada kengaytirgan⁹.

Amir Temur tasavvufni o'z davlati va siyosatida qo'llab quvvatlashining asosiy sababi faqat Allohning yoki Muhammad (s.a.v) payg'ambarning muqaddas so'zlarigina emas, balki unda mavjud bo'lgan axloqiy qoidalar, kishilar, xalqlar, millatlar o'rtasidagi ittifoqni va o'zaro aloqani mustahkamlay olishga qodir bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarning mavjudligidadir. XV asrda Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy hayotga va Amir Temur va temuriylar sulolasi vakillariga tasavvuf ilmi ayniqsa naqshbandiya tariqati shayxlari, juda katta ta'sir o'tkazganlar. Amir Temur singari temuriy shahzodalar ham islom dinini saltanat tayanchi va taraqqiyot omili sifatida qabul qilish bilan birga, tasavvuf ta'limotiga ham juda katta ehtirom bilan qaraganlar. Islom diniga bo'lgan munosabat temuriy shahzodalariing tasavvufga bo'lgan munosabatining ifodasi bo'lgan¹⁰.

Dissertant XIV-XV asrlarda ilm va ma'rifat, adabiyot va san'atning rivojlanishi bilan birga tasavvufning rivojlanishini ham kuzatish mumkinligini qayd etadi. Bu davlarda tasavvufning ilohiy "ishq" haqidagi g'oyalari san'at va adabiyotga kuchli ta'sir ko'satdi. Musavvirlar, shoirlar ijodiga kirib borib, adabiyotning jozibasini oshirdi. Tasavvuf adabiyoti hikmat va falsafa bilan boyitildi deb xulosa beradi.

XIV-XV asrlarda Xoja Muhammad Porso va boshqa shayxlarning xizmatlari sababli Naqshbandiya tariqati nufuzi yanada oshdi. Naqshbandiya Amir Temur va temuriylar davlatining mafkuraviy asosiga aylanib bordi. Xalqning Naqshbandiya

⁷ Юсупова Д.Ю., Улашова С. Амир Темур ва Темурийлар даврида этнослараро муносабатлар // Бағрикенглик – ўзаро ишончни ривожлантиришнинг воситаси сифатида. Халқаро илмий анжуман материаллари. – Тошкент, 2018. – Б.3.

⁸ Якубовский А.Ю., Греков Б.Д. Золотая Орда и её падение. М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1950. – С. 43.

⁹ Каримов С.К. Амир Темур ижтимоий-сиёсий таълимотининг асосий тамойиллари. Ўрта Осиё социологик фикрлари тарихидан (Ўқув қўлланма). – Самарқанд: СамДУ, 2009. – Б. 168.

¹⁰ Рахмонов С. Иккинчи ренессанс даврининг маънавий-рухий асоси. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри. 2021. – Б. 77.

shayxlariga ishonchlari ortib, tariqatchilikda unga ergashuvchilar ko‘payib bordi. Aynan, shu asrlarda Naqshbandiya tariqati o‘zining geografik hududlarini yanada kengaytirdi. Bu esa tariqatning mo‘tadil ahli sunna va jamoa yo‘lida ekanligi, uning g‘oyalari ijtimoiy-iqtisodiy hayotga yaqinligi jihatidan boshqa tariqatlardan farq qilishi bilan ham bog‘liq edi.

XV asrda tasavvufda tarkidunyochilikdan farqli, dunyo boyligiga muhabbat qo‘ymagan holda, ko‘p molu davlatga ega bo‘lish tariqatda bo‘lishga halal bermasligi bevosita shayx Xoja Ahror Valiyning faoliyati bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga ayrim manbalarda tasavvuf ta‘limotining ulug‘ namoyandasi bo‘lgan Xoja Ahror Valiyning Mirzo Ulug‘bek rasadxonasini vayron qilishda va uning shahid bo‘lishida aybdor deb, Xoja Ahror Valiy bilan Ulug‘bek o‘rtasidagi munosabatni buzib talqin qilinganligi ham assossizdir. Temuriylar davrida Xoja Ahror Valiy va Maxdumi A‘zam Kosoniy kabi naqshbandiya tariqati yetakchilari temuriyzodalar orasida siyosiy nizolarning avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, davlat barqarorligi va yurt tinchligini saqlash maqsadida hukmdorlarga yaqindan yordam berganlar.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Amir Temur va temuriylar davrida sivilizatsion taraqqiyot yuqori bosqichga chiqqan, shu bilan birga, ma‘naviyat, adabiyot, san‘at va ilm-fan sohasida muhim bosqich hamda yangi bir tarixiy davr boshlangan. Sohibqiron davlat hayotida ilm-fan va uning yutuqlarini, ulug‘ligini juda yaxshi bilgan va “Men azaldan ilm shaydosiman” deb qalbidagi fikrni aytishi uning jamiyatni rivojlantirish borasidagi to‘g‘ri yo‘nalishni tanlaganini ko‘rsatadi. Xoja Ahror Valiy, Xoja Ismat Buxoriy, Xoja Muhammad Porso kabi mutasavviflar temuriy shaxzodalarga yaqindan yordam berishgan. Shuningdek, temur va Temuriy hukmdorlar tasavvuf ta‘limoti va uning insonparvar, bunyodkorlikka hamda adolatga chaqiruvchi g‘oyalari bilan jamiyat ma‘naviy hayotini yuksaltirish, jamiyatdagi tirli illatlardan xalos etuvchi vosita sifatida foydalanishgan. Temur va temuriylar davrida yaratilgan ma‘naviyat mustaqil mamlakatimiz yoshlarini halollik, poklik, vatanparvarlik, imon-e‘tiqod ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Temuriylar saltanatining ma‘naviy-ruhiy asosi sanalgan tasavvuf ta‘limoti va undagi axloq, ta‘lim-tarbiya to‘g‘risidagi g‘oyalar hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Tasavvuf ta‘limotidagi axloqiy tarbiya, bugungi zamonaviy yoshlarni komil inson bo‘lib tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Temuriylar davri mutasavviflarining tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil inson talqini”** deb nomlangan ikkinchi bobida esa naqshbandiya tariqati va unda komil inson talqini, temuriylar davri mutasavviflarining tasavvufiy qarashlarida inson ma‘naviy-ruhiy kamoloti masalasi hamda futuvvat haqidagi g‘oyalarning komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati tadqiq qilingan.

XIV asr O‘rta Osiyo tasavvufining yirik namoyandasi, mashhur avliyo, naqshbandiya tariqatining asoschisi va rahnomosi bo‘lmish bu ulug‘ zotning asl ismi Bahouddin Muhammad ibn Burxonuddin al-Buxoriy bo‘lib, islom olamida “Hojai buzrug” va “Shohi Naqshband” nomlari bilan mashhur bo‘lgan¹¹. Bahouddin

¹¹ Хамиджон Хомидий. Тасаввуф алломалари. – Т.: Шарк, 2004. – Б. 177.

buxorolik ulug‘ tasavvuf namoyondasi, vatandoshi Abdulxoliq G‘ijduvoni asos solgan Xojagon tariqati yo‘ldan bordi va shu yo‘ldan borgan jamoaga rahnamolik qilish bilan birga o‘zining Naqshbandiya tariqatining tashkiliy asosini qurdi. Naqshbandiya – Naqshband yo‘lini davom etuvchi, Naqshband ta‘limotiga muvofiq tariqat, ya‘ni Haqqa etuvchi yo‘l ma‘nosini anglatadi. Bu ta‘limotning asosiy shiori “Dil ba Yoru, dast ba kor” – “Qalb Yor – Alloh, qo‘l ish bilan” va “Naqsh band, ba dil band” – “Naqshni bog‘la, qalabda bog‘la”dir. Naqshbandiya yo‘li insonni barcha bog‘lanishlardan uzib, nafsini tarbiyalab Allohni qalabda naqshlashni o‘rgatadi¹².

Tadqiqotchi fikricha, naqshbandiya barcha tariqatlarning zubda – qaymog‘i, xulosasi va eng mukammalidir. Bu kamolot yo‘li Qur‘oni karim va Hadisi sharifga asoslanadi. Islomni asosiy manbalariga tayangan holda ularning asosiy g‘oyasi bo‘lgan imon, islomni rivojlantirib, ehson mohiyatini ochib beradi va shu maqomda amal qiladi. Xoja Bahouddin Naqshband hazratlari butun hayoti davomida insonlarning baxt-saodati, ma‘naviy pokligi uchun kurashib, hikmatlari orqali insondagi salbiy harakatlar, jamiyatning beqaror bo‘lishiga sabab bo‘lishi, ularni tartibga solish uchun esa Allohni tushunib yetish, odob-axloqni o‘rtaga qo‘yishni o‘zining qarashlari markaziga qo‘yadi. Uning irfoniy qarashlari diniy, ma‘naviy-axloqiy mazmun va ma‘noga boyligi bilan ajralib turadi.

Komil inson mavzusi va masalasi tasavvufning markaziy masalasi hisoblanadi. Chunki tasavvuf o‘zining mazmun mohiyati va maqsadi bilan ma‘naviy-ruhiy pok va yetuk barkamol insonni tarbiyalashdan iborat bo‘lgan. Komil insonga birinchi bo‘lib konseptual ta‘rif bergan Aziziddin Nasafiy: “Bilgilki, Komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo‘lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda qo‘yidagi to‘rt narsa kamolga yetgan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe‘l, yaxshi axloq va maorif”¹³, - deya qayd etgan. Darhaqiqat, e‘tibor berib qaraydigan bo‘lsa, Nasafiy komil insondagi oldingi uch sifat ya‘ni yaxshi so‘z, yaxshi fe‘l, yaxshi xulq sifatlarini “Avesto”da mavjudligi bilgan va uni qabul qilgan va yoniga tasavvufiy tushuncha bo‘lgan maorifni qo‘shib qo‘ygan. Chunki maorif tasavvufiy poklanish bo‘lib, bunday sifatga ega bo‘lgan inson yolg‘on, riyo, badkirdorlikdan yanada yiroq bo‘ladi. Nasafiy nazarida komillik yo‘liga kirgan har bir solik mana shu to‘rt sifatni egallagan taqdiridagina u kamolga erishadi.

Tariqatning maqomlarini, qoidalarini ishlab chiqishda Muhammad Porso, Alouddin Attor, Ya‘qubi Charxiy va G‘ijduvoniylarning xizmatlari ham katta bo‘lgan. Bu tariqatga faqatgina oddiy xalq vakillari emas, balki Buxoro va Samarqand allomalari, Amir Temur va temuriylar va uning avlodidan bo‘lgan boshqa shaxzodalar ham kirgan. Shohruh Mirzo so‘fiylarni komil insonlar sifatida qadrlagan. Xoja Muhammad Porsoning temuriy shahzodalarga yaqinlashuvi, ular bilan shariat va tariqat masalalaridagi bo‘lgan suhbatlari hamda iliq munosabatlari uning ilm va ma‘rifat sohasidagi yutuqlari ayniqsa, Naqshbandiya tariqatining kengayishi va nufuzining ortishida muhim omil bo‘ldi.

¹² Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. - Тошкент: “ФАН”, 2005. – 233 б., Наврўзова Г.Н. Нақшбандия-камолот йўли. - Бухоро, 2007. – Б. 189.

¹³ Комилов Н. Тасаввуф. –Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009. – Б. 133.

Dissertatsiyada temuriylar davri ma'naviyati va ma'rifati rivoji o'zlarining ongli hayoti va faoliyatini insonning baxt-saodati, xalqlar osoyishtaligi, obodonlik ishlari, ilm-fan, adabiyot va san'at rivojiga bag'ishlagan ikki buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy (1414-1492 yy) va Mir Alisher Navoiy (1441-1501 yy) nomi bilan chambarchas bog'liqligi asoslab berilgan. Abdurahmon Jomiy temuriylar davri dunyoqarashi, mafkurasi bo'lmish naqshbandiychilikka ixlos qo'ygan, uni qabul qilgan, o'zi shu yo'ldan borgan va uning g'oyalarini targ'ib etgan. Naqshbandiychilik adolatni, o'z mehnati asosida bunyod etilgan halol luqmani ma'qullagan, dabdabali hayotni rad etgan, g'irrom yo'llar bilan mol-mulk to'plashni qoralagan. Bu ta'limot insonparvarlik, rostgo'ylik, halollik, mehnatsevarlik, ma'naviy poklik, kamtarlik, samimiylik kabi chin insoniy fazilatlarni ulug'lagan.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, XIV-XV asrlarga kelib Amir Temur va temuriylarning faoliyatlari ta'sirida tasavvuf ta'limoti ijtimoiy hayotning barcha sohalarlariga kirib borgan. Tasavvuf – islomning ichki rivojlanishi, ruhiy hayotni anglashidan yuzaga kelgan ilmdir. Demak, tasavvuf asosan inson kamoloti uchun kashf etilgan ikkinchi o'z-o'zini idora etish yo'li asosan qalb tarbiyasi va uning holati masalasiga e'tibor beradi. Naqshbandiylikda inson jism va ruhdan tuzilganligi va ruhiy-ma'naviy kamolotida qalbni poklash, nafsni va suhbat asosiy o'rinda turadi. Alouddin Attor dunyoqarashining g'oyaviy manblarini o'rganish uning islom ilmlari, tasavvuf ilmining bilimdoni ekanini bilish imkonini oshiradi. Amir Temur va Temuriylar davri mutasavviflarining ma'naviy merosidagi komil insonga oid g'oyalar umumbashariy xususiyat kasb etib, barcha zamonlarda o'zining dolzarbligini yo'qotmaydi. Komil insonni kamol toptirishda futuvvat g'oyalarining vujudga kelishi insoniy fazilatlarning yanada rivojlanishi va mukammallashishiga olib keldi. Tasavvuf Allohga muhabbat qo'ymoq va uning vasliga yetish yo'lida riyozat chekmoq va shu orqali komil insonni tarbiyalashdir. Tasavvuf aqldan ustun turuvchi ilmdir. Tasavvuf ilmi Allohdan keladigan ilm, ilhom, kashfu xoldir. Tasavvuf botin ila g'ayb olami bilan oshnolikdir. Tasavvuf bu ruhiy tarbiyadir, komil insonni tarbiyalashning muhim vositasidir. Futuvvat ahli inson barkamolligi faqatgina ruhiy dunyoning mukammal bo'lishidangina iborat emasligini, balki bu barkamollik moddiy dunyoni ham tark etmasdan ikkalasi uyg'unligini ta'minlashdan iborat ekanini tushunib yetgan barkamol toifadidir. Bu borada Husayn Voiz Koshifiyning xizmatlari beqiyosdir. Umuman olganda, temuriylar saltanatining ma'naviy-ruhiy asosi sanalgan tasavvuf ta'limoti va undagi axloq, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Tasavvuf ta'limotidagi axloqiy tarbiya, bugungi zamonaviy yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Temuriylar davri mutafakkirlarining komil inson haqidagi g'oyalaridan ma'naviy tarbiya jarayonida foydalanishning ahamiyati”** deb nomlangan va mazkur bobda Abdurahmon Jomiy rashhalarida komil insonga oid g'oyalar, Alisher Navoiyning komil inson haqidagi konsepsiyasi, uning tasavvuf falsafasi bilan aloqadorligi hamda Yangi

O'zbekistonda temuriylar davri mutafakkirlarining komil insonga oid qarashlarini hayotga tadbiiq etishning ijtimoiy-falsafii muammolari tahlil etilgan.

Tasavvuf ta'limotida komil inson haqidagi g'oyalarning takomili Ibn Arabiydan so'ng qator mutasavvif va mutafakkirlarining diqqatini o'ziga tortdi. Shayx Omuliy, Abdulkarim Giyloniy va Aziziddin Nasafiyning komil inson haqidagi qarashlari shubhasiz, Ibn al-Arabiy ta'limoti ta'siri ostida dunyoga keldi. Yuqorida nomlari zikr etilgan mutafakkirlarning komil inson to'g'risidagi qarashlari asosan ikki xil yo'nalishda talqin etilgan.

1. Komil Inson – Kayhoniy vujud (Ibn al-Arabiy, Shayx Omuliy, Abdulkarim Giyloniy);

2. Komil Inson – ham kayhoniy va voqeiy (hayotiy) vujud (Aziziddin Nasafiy). Abdurahmon Jomiyning inson haqidagi qarashlari tizimida komil insonga oid yuqoridagi ikkala talqinning namoyonini kuzatish mumkin. Ya'ni, mutasavvifning falsafii asarlarida komil inson ham kayhoniy bir vujud, adabiy-irfoniy (dostonlari va g'azallarida) asarlarida esa ham kayhoniy va ham insoniy (yoki hayotiy) vujud sifatida gavdalangan.

Dissertatsiyada butun borliq, xususan inson borlig'i masalasi, komil insonning kamoloti uchun zarurii axloqii fazilatlar – poklik, saxovat, halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, bunyodkorlik haqida fikr yuritilgan. Badnafslilik, harom yeyish, mast qiladigan ichimliklarni ichish, giyohvandlik kabi illatlarning insoniyat jamiyatining tinchlik va barqarorligi hamda inson sog'ligi uchun naqadar zararli ekani asoslab berilgan.

Abdurahmon Jomiy asarlarining mazmun-mohiyatidan inson va uning tabiati, borlig'i, fitrati, yashashdan maqsadi, axloqii tarbiyasi, yuksak qadriyatlari, xayr-ehsoni, mehr-muruvvati, saxiyligi, yaxshilik qilishi kabi asosii masalalar turgan, kishilarni insof va diyonatga, iymon-e'tiqodli, kamtar va rostgo'y bo'lishga da'vat etgan. Allomaning fikricha, inson o'zidan yaxshi nom chiqarishi va qoldirishi uchun doimo xalqqa yaxshilik qilishi, og'irini yengil qilishi, ezgu amallar bilan shug'ullanmog'i lozim. Mutasavvif shoir o'zining ma'navii merosida xasislikni, o'g'rilikni keskin qoralagan va aqlga muvofiq yashash, o'zidan ortgan boylikni miskinlarga, yordamga muhtojlarga berish, sabrli, qanoatli bo'lish g'oyalarni ilgari surgan. Jomiy bag'rikenglikni komil insonning o'ziga xos muhim fazilati sifatida tavsiflab, keng diapazonda talqin etgan, uni insonning butun ijobii fazilatlari va xulq-atvorining yig'indisi deb bilgan.

